

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(To'rtinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2025

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durdona Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Axmedova Dilfuza Rafukjanovna, Azimbayeva Nargiza To‘xtamuradovna Komparativlik vositalarining fors va o‘zbek tillarida ifodalanishi hamda ularning madaniy va ijtimoiy-lingvistik talqinlari	4
Salimova Zebo Rustam qizi Turk tilida fitomorf birliklarning lingvokulturologik talqini	21
Boboyeva Madina Xaydarovna So‘z birikmasining ko‘p funksiyalilik xususiyati	29
Raxmatova Bahora Ibodulla qizi Huquqiy matnlarning kommunikativ tuzilmasida assertiv va direktiv aklarning ahamiyati.....	39
Nizamova Salomat Usmanovna Family va kinship qarindoshlik atamaları diaxronik tadqiqot predmeti sifatida	49
Yakubova Feruza Rashidovna “Nuzhau-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari	57
Raxmatullayev Nodir Nuritdinovich Maliho tazkirasida XVII asr Movarounnahrda madaniy, ilmiy va adabiy hayotning rivoji.....	67

TARIX

Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich O‘zbekiston – Yevropa ittifoqi munosabatlarining mahalliy tarixshunoslikda tadqiq etilishi: tendensiyalar va yondashuvlar.....	81
Пасилов Баходир Абдуллаевич Этносы и этнополитические процессы в туркестане в 1917-1924 гг.	91
Хо‘jaxonov Ismoiljon Mansurovich “O‘zbek” nomining kelib chiqishi haqida ba’zi ma’lumotlar	103
Kamolov Jahongir Mamasidiqovich Eftaliylarda davlat mafkurasi, huquq va mudofaa tizimi	110
Ismatullayeva Zebo Shukurjanovna O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi tibbiy va ekologik hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari	121
Rajabov Jo‘rabek Muzaffar o‘g‘li Shayboniylar davrida dashti qipchoq o‘zbeklarining migratsiyasi	130

**“O‘ZBEK” NOMINING KELIB CHIQISHI HAQIDA BA’ZI
MA’LUMOTLAR****SOME INFORMATION ABOUT THE ORIGIN OF THE NAME
“UZBEK”****НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ О ПРОИСХОЖДЕНИИ НАЗВАНИЯ
«УЗБЕК»****Xo‘jaxonov Ismoiljon Mansurovich***Oriental universiteti**“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.**Tel.: +998 97 261-11-79**E-mail: khujahonov@mail.ru*

Annotatsiya: Mazkur maqolada “o‘zbek” atamasining kelib chiqishi va uning etnonim sifatida shakllanish jarayoni tarixiy manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Muallif “o‘zbek” so‘zi dastlab shaxs ismi sifatida qo‘llanilganini, keyinchalik esa Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon nomi va uning siyosiy faoliyati bilan bog‘liq holda umumiy etnosiyosiy nomga aylanganini asoslaydi. Maqolada shuningdek, turli tadqiqotchilar sharq, rus va g‘arb olimlarining fikrlari taqqoslab ko‘rsatilgan. Xulosa qilib aytganda, “o‘zbek” atamasi dastlab antroponim sifatida paydo bo‘lib, XIV-XV asrlarda Dashti Qipchoq hududida yashagan turkiy-mo‘g‘ul qabilalar birligini bildiruvchi umumiy etnik nom sifatida mustahkamlangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek atamasi, etnonim, O‘zbekxon, Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, etnogenez, turkiy xalqlar.

Abstract: This article explores the origin and historical development of the term “Uzbek” and its transformation into an ethnonym. The study demonstrates that the term “Uzbek” was initially used as a personal name and later became an ethno-political designation associated with Uzbek Khan, the ruler of the Golden Horde. The paper compares the perspectives of Eastern, Russian, and Western scholars, highlighting various interpretations of the term’s emergence. It concludes that “Uzbek” originated as an anthroponym and by the 14th-15th centuries evolved into a collective ethnonym referring to the Turkic-Mongol tribes of the Dasht-i Qipchaq region.

Keywords: Uzbek term, ethnonym, Uzbek Khan, Dasht-i Qipchaq, Golden Horde, ethnogenesis, Turkic peoples.

Аннотация: В статье рассматривается происхождение термина «узбек» и процесс его формирования в качестве этнонима на основе исторических источников и современных научных исследований. Автор показывает, что слово «узбек» первоначально употреблялось как личное имя, а позднее, в связи с деятельностью хана Узбека - правителя Золотой Орды, стало обозначать этнополитическое объединение. В работе сопоставлены взгляды восточных,

русских и западных исследователей. В заключение делается вывод, что термин «узбек» возник как антропоним и к XIV-XV векам утвердился как общий этноним для тюрко-монгольских племён Дешт-и-Кыпчака.

Ключевые слова: Термин «узбек», этноним, хан Узбек, Дешт-и-Кыпчак, Золотая Орда, этногенез, тюркские народы.

KIRISH

O‘zbeklarning milliy o‘zligini anglash masalasini tadqiq etishda eng muhim va murakkab yo‘nalishlardan biri “o‘zbek” atamasining kelib chiqishi hamda uning etnonim sifatida shakllanish tarixidir. Bu masala nafaqat tilshunoslik va tarixshunoslik, balki etnogenetik va madaniy o‘zlikni anglash jarayonlarini chuqur tushunish uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “O‘zbek” atamasining ildizlarini o‘rganish zamonaviy o‘zbek xalqining etnik birligi, siyosiy shakllanishi va madaniy xususiyatlarini anglashda muhim kalit vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarda “o‘zbek” so‘zining kelib chiqishi haqida turlicha, ba‘zan esa bir-biriga zid fikrlar mavjud. XII asr arab muallifi Usoma ibn Munqiz o‘zining “Kitob al-i‘tibor” asarida bu nomni ilk bor shaxs ismi sifatida qayd etgan. Keyinchalik Rashiddin Fazlullohning “Jome’ at-tavorix”, Ato Malik Juvayniyning “Tarixi jahongusho” kabi asarlarda ham “o‘zbek” ismi shaxs nomida uchraydi. Shuningdek, Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon (1312–1342) nomi bilan bog‘liq manbalar, xususan Hamidulloh Mustavfiy Kazviniyning “Tarixi guzida”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” va Abdulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida “o‘zbek” atamasi siyosiy-ijtimoiy nom sifatida tilga olinadi.

Rus va g‘arb olimlaridan N.A. Aristov, P.P. Ivanov, A.Yu. Yakubovskiy, Xilda Hukem, E. Olvort, H. Vamberi kabi tadqiqotchilar bu atamani Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon nomi bilan bog‘lash fikrini ilgari suradilar. Shu bilan birga, V.V. Grigorev, A.A. Semyonov va B. Ahmadov singari olimlar bu atama dastlab Oq O‘rda hududida shakllanganini ta’kidlaydilar.

G‘arb tadqiqotchilari G. Xovors va M. Pelyo “o‘zbek” so‘zining ma’nosini “o‘z-o‘ziga bek”, ya’ni erkin, mustaqil inson sifatida izohlashadi. Mahalliy olimlardan A. Asqarov, M.M. Ermatov, R.A. Agayev va A. Shukurovlar ham bu masalaga turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola tarixiy-tipologik tahlil, taqqoslamali manbashunoslik va etnogenetik yondashuv usullariga tayangan. Asosiy maqsad “o‘zbek” atamasining paydo bo‘lishi, ma’no transformatsiyasi va siyosiy-etnik kontekstda shakllanishini aniqlashdir.

Manba sifatida arab, fors va turkiy tarixchilar (Usoma ibn Munqiz, Rashididdin, Mustavfiy, Mirzo Ulugʻbek, Abdulgʻozi) hamda rus, gʻarb va oʻzbek tadqiqotchilarning ishlari solishtirildi. Shuningdek, “oʻzbek” atamasining antroponim sifatidagi ilk qoʻllanilishi bilan etnonim sifatidagi siyosiy mustahkamlanish jarayoni oʻzaro bogʻliq holda oʻrganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarda “oʻzbek” soʻzining kelib chiqishi hamda uning xalq nomi sifatida shakllanishi haqida turli, baʼzan bir-biriga zid boʻlgan fikrlar mavjud. Shu bilan birga, tarixiy maʼlumotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, “oʻzbek” iborasi dastlab antroponim, yaʼni shaxs ismi sifatida ishlatilgan. Masalan, XII asrda yashagan arab muallifi va harbiy arbob Usoma ibn Munqiz oʻzining “Kitob al-iʼtibor” (“Ibrat kitobi”) asarida Saljuqiylar davrida Eronda roʻy bergan voqealarni bayon etar ekan, 1115-1116-yillarda Hamadon amiri Boʻrsuq qoʻshinining boshligʻi va Mosul shahri hokimining ismi Oʻzbek boʻlganini qayd etadi. Bu maʼlumot “oʻzbek” nomi ilk davrlarda shaxsiy ism sifatida ishlatilganini koʻrsatadi.

Shuningdek, XIII-XIV asrlarga oid tarixiy manbalar, jumladan, Ato Malik Juvayniyning “Tarixi jahongusho” va Rashididdin Fazlullohning “Jomeʼ at-tavorix” asarlarida, hamda Elxon Oboka (1265-1282) davrida Eronda yashagan Tojiddin ibn Bahoiddin (Puri Baho)ning dostonida ham “oʻzbek” ismi shaxs nomida uchraydi. Shuningdek, 1221-yilda Xorazmshoh Jaloliddinning Afgʻonistondagi qoʻshini boshliqlaridan biri “Jahon Pahlavon Oʻzbek Toy” deb atalganligi haqidagi maʼlumotlar ham bu nomning keng qoʻllanilganini tasdiqlaydi. Bu misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, “oʻzbek” soʻzi dastlab muayyan shaxslarning nomi sifatida qoʻllanilgan boʻlib, u Markaziy Osiyo hududida, xususan, ogʻuz va boshqa turkiy qabilalar orasida moʻgʻullar bosqiniga qadar mavjud boʻlgan.

“Oʻzbek” atamasining maʼlum bir aholi guruhi yoki ulusga nisbatan qoʻllanilishi XIV asr boshlariga toʻgʻri keladi. Shu davr manbalaridan maʼlumki, XIV-XV asrlarga oid sharq tarixiy asarlarida (arab, fors va turkiy tillardagi) “oʻzbek” iborasi dastlab Oltin Oʻrda hukmdori Oʻzbekxon ulusiga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik esa, sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida shakllangan koʻchmanchi turk-moʻgʻul qabilalari ittifoqini ifodalovchi umumiy siyosiy nom sifatida qoʻllanila boshlagan.

Taʼkidlash joizki, oʻrta asr sharq tarixchilari va geograflarining koʻpchiligi “oʻzbek” etnonimini Oltin Oʻrda xoni Oʻzbekxon (1312-1342) nomi bilan bogʻlaydilar. Masalan, Hamidulloh Mustavfiy Kazviniy (1281-1350)ning “Tarixi guzida” (“Tanlangan tarix”) asarida Oʻzbekxonga tobe boʻlgan yerlar va xalqlar “oʻzbekiyon” (“oʻzbeklar”), ular istiqomat qilgan hududlar esa “mamlakati oʻzbek” (“oʻzbeklar mamlakati”) deb ataladi.

Mirzo Ulugʻbek ham oʻzining “Toʻrt ulus tarixi” asarida bu nomning shunday kelib chiqishini taʼkidlab, “Oʻzbek ulusini unga (Oʻzbekxonga) nisbat beradilar” deb yozadi.

Xiva xoni Abdulgʻozi Bahodirxon (1643-1664) “Shajarayi turk” asarida shunday deb yozadi: “Toʻqtagʻuxon oʻlgandin soʻng oʻn uch yoshda Oʻzbekxon xon boʻldi. Elni ota-bobosining dasturi bilan zabt qildi, har kimning martabasiga yarasha hurmat qildi va inʼomlar berdi. El-ulusni dini islomga kirguzdi. Andin soʻng Joʻchi elini oʻzbek eli tedilar.” Abdulgʻozi Bahodirxonning bu soʻzlaridan xulosa qilish mumkinki, Oʻzbekxon oʻz qoʻl ostidagi qabilalarni islom diniga kiritgach, ular umumiy ravishda “oʻzbek eli” deb atalgan.

Bu nuqtayi nazarni qator rus va gʻarb olimlari ham qoʻllab-quvvatlaydilar. Xususan, N.A. Aristov, P.P. Ivanov, A.Yu. Yakubovskiy, M. Chaplichka, Xilda Hukem, H. Vamberi va E. Olvort kabi tadqiqotchilar “oʻzbek” etnonimining paydo boʻlishini Oʻzbekxon nomi bilan bogʻlaydilar. N.A. Aristovning fikricha, “Oʻzbekxongacha tarixda bu nom uchramaydi, shu sababli uning nomi bilan bogʻlangan deb aytish mumkin”. A.Yu. Yakubovskiy esa “oʻzbek” atamasining kelib chiqishini “oʻzbek” va uning koʻplik shakli “oʻzbekiyon” soʻzlari bilan izohlab, ular oʻz nomlarini Oltin Oʻrda hukmdori Oʻzbekxondan olganlar, degan fikrni bildirgan. P.P. Ivanov ham mazkur nuqtayi nazarni maʼqullaydi. Shuningdek, xorijlik tadqiqotchilar M.A. Chaplichka va Xilda Hukem ham oʻzbeklarning kelib chiqishini Oʻzbekxon nomi bilan bogʻlash fikrini ilgari suradilar.

Bu borada, ayniqsa, venger sharqshunosi Herman Vamberining fikrlari alohida eʼtiborga loyiqdir. Uning taʼkidlashicha, turkiy xalqlarda agar hukmdorlardan biri mamlakatni adolat bilan boshqarib, davlatda islohot va tartib-intizom oʻrnatsa, el uning nomini abadiy saqlashga intiladi. Bu orqali u nafaqat hukmdorini qavm boshligʻi darajasiga koʻtaradi, balki shu xalqning siyosiy taraqqiyoti va umumjahon tarixiga kirish jarayonini ramziy ifoda etadi. Vamberi shunday yozadi: “Xuddi shunday holat Koʻk Oʻrdaning sharqida, Volga bilan Orol dengizi orasida istiqomat qilgan turkmoʻgʻul qabilalarida ham kuzatiladi. Ular Joʻchi sulolasidan boʻlgan toʻqqizinchi hukmdor Oʻzbekxon nomi bilan bogʻlab, oʻzlariga bir siyosiy qoʻshma nom “oʻzbek” atamasini qabul qilganlar.” Olim shuningdek, “oʻzbek” soʻzining lugʻaviy maʼnosi haqida ham mulohaza yuritib, uni “oʻziga xos mustaqil xoʻjayin”, “erkin shaxs” maʼnosida talqin qiladi. Uning taʼkidlashicha, bu atama qadimiy mojoyr hujjatlarida ham uchraydi va 1150-yillarga oid baʼzi yozma manbalarda qayd etilgan.

Oʻzbekxon davrida uning ulusi tarkibidagi *burkut*, *qiyot*, *qoʻshchi*, *qoʻngʻirot*, *nayman*, *qorluq*, *mangʻit*, *noʻkuz*, *qushchi*, *uyshun*, *doʻrmon*, *tuboy*, *kenagas*, *taymas*, *tuman-ming*, *uygʻur*, *xitoy* (*qora xitoy*) va boshqa turkiy-moʻgʻul qabilalar Sharq

manbalarida umumiy tarzda “o‘zbeklar” deb atalgan. Ular yashagan hudud esa “mamlakati o‘zbek” yoki “o‘zbek ulusi” sifatida tilga olingan.

XIV asrdagi arab mualliflari Nasiriddin ibn Furat (1361-1404), al-Asadiy (1377-1447) va al-Ayniy (1361-1452) o‘z asarlarida O‘zbekxon va uning vorislarini “shimol dashtlarining podshohlari”, “qipchoqlar sultonlari” yoxud “dasht mamlakatlarining podshohlari” deb ta’riflaydilar. Tarixchi al-Kalkashoniy esa (1418 yilda vafot etgan) To‘xtamishxonni “o‘zbeklar podshohi” sifatida zikr etadi.

Biroq “o‘zbek” atamasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekxon nomi bilan bog‘lanishiga barcha olimlar ham qo‘shilmaydilar. Masalan, V.V. Grigorev va A.A. Semyonov, B.Ahmedov kabi tadqiqotchilar bu atama ilk bor Oq O‘rda hududida paydo bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Ularga ko‘ra, XIV-XV asrlarda Eron va Movarounnahr tarixchilari Oq O‘rdadagi barcha turk-mo‘g‘ul qabilalarini umumiy “o‘zbeklar” nomi bilan ataganlar, O‘zbekxon esa Ko‘k O‘rda ya’ni Oltin O‘rdaning hukmdori bo‘lib, keyinchalik “o‘zbeklar” deb atalgan qabilalar unga bevosita bo‘ysunmagan.

B. Ahmedovning fikricha, “o‘zbek” iborasi XV asrga kelibgina Dashti Qipchoqdagi turk-mo‘g‘ul qabilalarining umumiy nomi sifatida mustahkamlangan. Uning ta’kidlashicha, XIV-XV asrlardagi arab va fors tillaridagi tarixiy asarlarda, jumladan Hamidulloh Mustavfiy Kazviniy, Nasiriddin ibn al-Furat, al-Asadiy, Nizomuddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamir asarlarida Orol va Kaspiydan to G‘arbiy Sibir, Itil (Volga) va Yoyiq (O‘rol) daryolaridan Balxash va Chu vohasigacha bo‘lgan keng hududda istiqomat qilgan turk-mo‘g‘ul qabilalari “o‘zbeklar” deb tilga olinadi.

G‘arblik tadqiqotchilar G. Xovors va M. Pelyo esa “o‘zbek” so‘zining ma’nosini “o‘z-o‘ziga bek”, ya’ni erkin, mustaqil inson sifatida izohlab, bu atama ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalarining mustaqillik hissini ifodalaganini ta’kidlaydilar. Ushbu fikrni ayrim mahalliy olimlar ham qo‘llab-quvvatlaydilar. Shu bilan birga, Allen J. Frank va Peter B. Golden kabi tadqiqotchilar “o‘zbek” atamasi Oltin O‘rda xoni O‘zbekxondan ancha oldin ham mavjud bo‘lgan, deb hisoblaydilar.

Ayrim mahalliy tadqiqotchilar (M.M. Ermatov, R.A. Agayev) “o‘zbek” so‘zini “o‘zlar” so‘zidan kelib chiqqan deb talqin qilsalar, ba’zi ziyolilar (Asqad Muxtor, Po‘lat Zohidov, Xurshid Davron, Tohir Malik, Anvar Shukurov) uni “O‘g‘uzxon” yoki “o‘g‘uzlar” nomi bilan bog‘laydilar.

Shu tariqa, manbalardagi ma’lumotlar va turli talqinlarning mavjudligi “o‘zbek” atamasining kelib chiqishi haqida yagona ilmiy xulosa chiqarishni qiyinlashtiradi. Biroq umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, “o‘zbek” iborasi turkiy muhitda ilk bor shaxsiy nom sifatida ishlatilgan, keyinchalik esa O‘zbekxon nomi va uning siyosiy faoliyati bilan bog‘liq holda umumiy etnosiyosiy nom darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbekxon Dashti Qipchoq hududida islom dinini rasmiy ravishda joriy etgan ilk hukmdorlardan biri bo‘lib, uning siyosiy nufuzi va islomni davlat dini sifatida tan olishi natijasida u boshqargan qabilalar “o‘zbek ulusi” deb atalgan. Shu davrdan boshlab “o‘zbek” nomi nafaqat siyosiy birlikni, balki diniy va madaniy birlikni ham ifoda eta boshlagan.

Adib Abduqahhor Ibrohimov ham bu nuqtayi nazarni qo‘llab, “Bizkim, o‘zbeklar” asarida shunday yozadi: “O‘zbek atamasi Oltin O‘rda davlatida yashagan, islom dinini qabul qilgan Orlot, Bahrin, Burgut, Qtoy, Qorluq, Mojar, Qipchoq, Qiyot, Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Nayman, Nukuz, Tang‘ut, Qushchi, Ming kabi turkiy qabilalar uyushmasini, ya‘ni o‘zbek xalqini ifoda etgan.”

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, “o‘zbek” atamasi ildizi qadimiy turkiy muhitda shakllangan bo‘lib, u dastlab shaxsiy nom sifatida, keyin esa O‘zbekxon nomi va uning islomni joriy etish siyosati bilan bog‘liq holda umumiy etnosiyosiy nom sifatida mustahkamlandi. XIV-XV asrlarga kelib esa, bu atama Dashti Qipchoq aholisining umumiy etnonimiga aylanib, keyinchalik Markaziy Osiyodagi yetakchi etnik va siyosiy birlik o‘zbek xalqi nomi sifatida shakllandi.

O‘zbekxonning islomni davlat dini sifatida joriy etishi “o‘zbek” nomining diniy va madaniy birlashuv ramziga aylanishiga sabab bo‘lgan. G‘arb va mahalliy olimlar o‘rtasidagi fikrlar farqlansa-da, umumiy xulosa shuki, “o‘zbek” so‘zi siyosiy birlik, mustaqillik va diniy o‘zlikni ifoda etuvchi tarixiy tushunchaga aylangan.

Kelgusida “o‘zbek” atamasining turkiy qabilalar o‘rtasida tarqalish dinamikasini, til va madaniyat bilan o‘zaro aloqasini lingvo-etnologik tadqiqotlar orqali yanada chuqur o‘rganish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуғози Баҳодирхон. (1992). Шажарайи турк. Тошкент.
2. Агаев Р.А. (1990). Страны и народы. Происхождение названий. Москва. С. 102.
3. Аскарлов А. (2015). Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент.
4. Аҳмедов Б. (1992). Ўзбек улуси // Ўзбегим. Тошкент.
5. Аҳмедов Б. (1994). Тарихдан сабоқлар. Тошкент.
6. Вамбери Херман. (1990). Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Тошкент. 52–53-бетлар.
7. Даврон Хуршид. (1991). “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши билан боғлиқ бир фараз хақида // Самарқанд хаёли. Қиссалар ва бадиялар. Тошкент. 232-бет.

8. Иброҳимов А. (2011). Бизким, ўзбеклар (миллий давлатчилигимиз асослари ҳақида мулоҳазалар). Тошкент. 361-бет.
9. Мирзо Улуғбек. (1994). Тўрт улус тарихи (форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норқулов, М. Ҳасаний таржимаси). Тошкент. 225-бет.
10. Семёнов А.А. (1953). К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана // Труды академии наук Таджикской ССР. Том XII. С. 3–37.
11. Усама ибн Мункиз. (1958). Китаб назидания (пер. Ю.И. Крачковского). Москва: Издательство восточной литературы. С. 134.
12. Шукуров Анвар. (2010). “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши ҳақида. Тошкент. 10–36-бетлар.
13. Эрматов М.М. (1964). К вопросу о происхождении названия «узбек» // Ученые записки Ташкентского государственного педагогического института имени Низами. Том 49. Тошкент.

REFERENCES:

1. Abdug‘ozi Bahodirxon. (1992). Shajarayi turk. Toshkent: Cho‘lpon. 8-bet. (In Uzbek)
2. Agaev R.A. (1990). Strany i narody: Proiskhozhdenie nazvaniy. Moskva. S. 102. (In Russian)
3. Ahmedov B. (1992). O‘zbek ulusi // O‘zbekim. Toshkent. (In Uzbek)
4. Ahmedov B. (1994). Tarixdan saboqlar. Toshkent. (In Uzbek)
5. Asqarov A. (2015). O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent. (In Uzbek)
6. Davron Xurshid. (1991). “O‘zbek” atamasining kelib chiqishi bilan bog‘liq bir faraz haqida // Samarqand hayoli: Qissalar va badiyalar. Toshkent. 232-bet. (In Uzbek)
7. Ermatov M.M. (1964). K voprosu o proiskhojdenii nazvaniya “uzbek” // Uchenye zapiski Tashkentskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo instituta imeni Nizami. Tom 49. Toshkent. S. 54–55. (In Russian)
8. Ibrohimov A. (2011). Bizkim, o‘zbeklar (milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar). Toshkent. 361-bet. (In Uzbek)
9. Mirzo Ulug‘bek. (1994). To‘rt ulus tarixi (fors tilidan B. Ahmedov, N. Norqulov, M. Hasaniy tarjimasi). Toshkent. 225-bet. (In Uzbek)
10. Semenov A.A. (1953). K voprosu o proiskhojdenii i sostave uzbekov Sheybani-xana // Trudy akademii nauk Tajikskoy SSR. Tom XII. S. 3–37. (In Russian)
11. Shukurov Anvar. (2010). “O‘zbek” atamasining kelib chiqishi haqida. Toshkent. 10–36-betlar. (In Uzbek)
12. Usama ibn Munkiz. (1958). Kniga nazidaniya (per. Yu.I. Krachkovskogo). Moskva: Izdatelstvo vostochnoy literatury. S. 134. (In Russian)
13. Vamberi Herman. (1990). Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent. 52–53-betlar. (In Uzbek)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“AL-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 23-dekabr, 4-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.